



# TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI



FAN:

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA

MAVZU  
**11**

Sug'orish uchun suv manbalari. Suv manbalari.  
Suv manbasining turlari. Suvni mexanik  
ko'tarib sug'orish



Isayev Sabirjan  
Xusanbayevich



Irrigatsiya va melioratsiya  
kafedrasи professori,  
q.x.f.d.



# “SUG‘ORISH UCHUN SUV MANBALARI. SUV MANBALARI. SUV MANBASINING TURLARI. SUVNI MEXANIK KO‘TARIB SUG‘ORISH” MAVZUSIDAGI MA’RUZA MASHGULOTINING TEXNOLOGIK XARITASI

| Faoliyat<br>bosqichlari                 | Faoliyat mazmuni  |  |
|---|---|--|
|   | O’ituvchi   | Talabalar  |
| I. Kirish<br>bosqichi<br>(10 daqiqa).   | <p>1.1. Mavzuning nomi, maqsadi, rejalashtirilgan o‘quv mashg‘ulot natijalari va uni o‘tkazish rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mashg‘ulot ma’ruza, tushuntirish va namoyish shaklida o‘tkazilishini va baholash mezonlarini ma’lum qiladi</p> <p>1.3 Fanni o‘rganish uchun adabiyotlar ruyxati bilan tanishtiradi.</p>   | Tinglaydilar, yozib oladilar   |
| II. Asosiy<br>bosqich (55<br>daqiqa).   | <p>2.1. Mavzu bo‘yicha ma’ruza va uning rejasi, asosiy tushunchalar bilan tanishtiradi.</p> <p>2.2. Ma’ruzani yorituvchi slaydlarni Power pointda namoyish va sharhlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy bilimlarni bayon qiladi.</p> <p>2.3.Jalb qiluvchi savollar beradi; mavzuning har bir qismi bo‘yicha xulosalar qiladi; eng asosiy tushunchalarga e’tibor qaratadi.</p> | Tinglaydilar,<br>yozib boradilar, savollarga javob beradilar   |
| III. Yakuniy<br>bosqich (15<br>daqiqa). | <p>3.1. Mavzuni umumlashtiradi, umumiylar qiladi, yakun yasaydi, savollarga javob beradi.</p> <p>3.2.Talabalarga mavzu bo‘yicha nazorat savollarini e’lon qiladi.</p>   | Tinglaydilar,<br>savol beradilar,<br>savollarga javob beradilar<br>va uyga<br>vazifani yozib oladilar. |

## **Asosiy adabiyotlar ro‘yxati**

1. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Mamataliyev A.B. “Qishloq xo‘jaligi gidrotexnika melioratsiyasi”. Toshkent. Sharq. 2008. -408 bet.
2. Xamidov M.X., Shukurlayev X.I., Lapasov X.O. “Qishloq xo‘jalik gidrotexnik melioratsiyasi” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish bo‘yicha o‘quv qo’llanma. Toshkent. 2014. -233 bet.
3. Raximbayev F.M., Xamidov M.X. “Qishloq xo‘jaligi melioratsiyasi”. Tashkent. Mehnat. 1996. -328 bet.
4. Kostyakov A.N. Osnovi melioratsiya, M.: Selxozgiz, 1960 g.-604 str.
5. Markov YE.S. Selskoxozyaystvenniye gidrotexnicheskiye melioratsii, M.: Kolos, 1981 g. - 376 str.

## **Qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxati**

1. Yerxov N.S., Ilin N.I., Misenev V.S. Melioratsiya zemel, - M.: Agropromizdat, 1991. - 319 str.
2. Irrigatsiya Uzbekistana. I-IV tomi.

## **Internet materiallari**

1. <http://tiiame.uz/uz/page/ilmiy-jurnallar>, (Irrigatsiya va melioratsiya jurnalı).
2. [http://qxjurnal.uz/load/jurnal\\_2017/agro\\_ilm\\_2017](http://qxjurnal.uz/load/jurnal_2017/agro_ilm_2017), (Agro ilm jurnalı).
3. [https://elibrary.ru/title\\_about.asp?id=54940](https://elibrary.ru/title_about.asp?id=54940), (Jurnal Voprosi melioratsiya)

## **MAVZU REJASI:**

- 1. Suv resurslari va sug‘orish manbalari.**
- 2. Yer usti suv manbalari. Daryolar**
- 3. Yer usti suv manbalari. Ko‘llar, soylar va suv omborlari.**
- 4. Yer osti suv manbasi.**
- 5. Maxalliy oqim. Limanlar.**
- 6. Chiqindi suvlar**


## Chuchuk suv jami suvlarning 2,5 % ni tashkil etadi

*Uning 2/3 qismi muz va muzliklardan iborat.*

*40700 kub km<sup>3</sup> – insonlar foydalanishi mumkin.*

*Uning 20% inson yetib bora olmaydigan xududlarda joylashgan.*

*Qolgan 32900 km<sup>3</sup> ning  $\frac{3}{4}$  qismi – bu toshqin suvlaridir.  $\frac{1}{4}$  qismi, ya’ni **12500** kub km dan barqaror foydalanish mumkin..*



# *SUV RESURSLARI*

*Suv resurslari – gidrosferadagi doimiy va tabiatda aylanish jarayonida qaytadan tiklanib turuvchi suv zaxirasi bo'lib, unga okeanlar, dengizlar, daryolardagi suvlari, muzliklar, yer osti va tuproqdagi suvlari, atmosferadagi suvlari kiradi.*

*Suv zaxiralari miqdorini baxolashda uning doimiy (statistik) va qaytadan tiklanib turuvchi suv resurslari tushunchasi mavjud.*


*Doimiy (statistik) suv zaxiralari statistik xisoblashlarda foydalaniladigan mavjud barcha suv miqdoridir.*

*Qaytadan tiklanib turuvchi suv resurslari zamonda (vaqtida) o'zgaruvchi, ya'ni bir turdan boshqa turga o'zgarib turuvchi suvlari bo'lib, yer sharida suvning aylanishi xamda quruqlik va okeanlar o'rtaida suv almashinuvi natijasida xar yili tiklanib turadi. U asosan daryolarning yillik oqimiga tengdir.*

## *Yer sharida suvning taqsimoti*

| Nomlanishi                             | O'lcov birligi       | Qiymati   |
|--|----------------------|-----------|
| okean suvlari                          | mln. km <sup>3</sup> | 1120-1300 |
| atmosfera suvlari                      | mln. km <sup>3</sup> | 0,013     |
| yer osti suvlari                       | mln. km <sup>3</sup> | 60-100    |
| tuproq suvlari                         | mln. km <sup>3</sup> | 50-90     |
| muzliklar suvlari                      | mln. km <sup>3</sup> | 20-30     |
| ko'l va daryo suvlari                  | mln. km <sup>3</sup> | 1-4       |
| o'simlik va tirik organizmdagi suvlari | mln. km <sup>3</sup> | 0,006     |

# YER SHARIDA SUVNING AYLANISHI



## SUG‘ORMA DEXQONCHILIKDA SUV MANBALARI

*Sug‘orma dexqonchilikda suv manbalar bo‘lib:*  
*yer usti suvlari: tabiiy daryolar va ko‘llar, soylar va sun’iy suv omborlari;*  
*maxalliy oqim: tabiiy va sun’iy xovuzlarda yig‘ilgan atmosfera yog‘inlari suvlari;*  
*yer osti suvlari;*  
*chiqindi suvlari;*  
*tashlama va zovur suvlari;*  
*dengiz suvlari (qayta ishlangan) hisoblanadi.*

*Bir marta sug‘orish uchun suv manbasi bo‘lib, limanlarda ushlab qolinadigan maxalliy oqimlar xizmat qiladi.*

*Sug‘oriladigan maydonlarda bir nechta suv manbaları mavjud bo‘lsa, ularni tanlash texnik-iqtisodiy xisoblar orqali amalgamoshiriladi.*

*Suv manbalaridan foydalanishda albatta ulardan kompleks foydalanish, ya’ni qishloq xo‘jaligi, kommunal xo‘jalik, sanoat, gidroenergetika, baliqchilik, suv transporti va boshqalarni suv bilan ta’minlash masalalari ko‘riladi.*

# SUV MANBALARINING KO‘RSATGICHLARI

*Sug‘orish uchun suv manbalari quyidagi ko‘rsatgichlari bilan baxolanadi: suvining sifati, yillik va vegetatsiya davridagi suv oqimi miqdori, suv oqimining yillar bo‘yicha o‘zgarib turishi, suv sarfi rejimi, satxi va bosimining rejimi, sug‘oriladigan maydonga nisbatan joylashganligi.*

*Suvining sifati uning temperaturasi, mexanik oqiziqlar miqdori, mineralizatsiyasi va kimyoviy tarkibi, bakteriologik tarkibi bilan xarakterlanadi.*



## SUV MANBASINING SUG‘ORISH QOBILIYATI

*Manbadagi suv xajmi uning sug‘orish qobiliyatini belgilaydi. Manbaning sug‘orish qobiliyati deb, xisobiy suv bilan ta‘minlanganlik yilida uning suvi bilan qancha maydonni sug‘orish mumkinligiga aytiladi.*

$$F_{HT} = V_c \cdot \eta / M^{HT} \text{ sol.}$$

*Vc—manbadan bir yilda olinadigan suv xajmi,  $\eta$ -sug‘orish tizimining FIK,  $M^{HT}$  sol.-solishtirma mavsumiy sug‘orish meyori.*

*Manbadagi suv xajmi uning sug‘orish qobiliyatini belgilaydi. Manbaning sug‘orish qobiliyati deb, hisobiy suv bilan ta‘minlanganlik yilida sug‘orilishi mumkin bo‘lgan maydonga aytiladi.*

# **SUV RESURSLARINI BOSHQARISH**

Agar, Vtalab= FHT·MHT o‘rt. / (( Vmanba veg. bo‘lsa, rejadagi maydonni sug‘orish mumkin, Agar, Vmanba veg. ( Vtalab( Vmanba yil. bo‘lsa, manbaning suv resurslarini mavsumiy (vegetatsiya davri) boshqarish lozim bo‘ladi, ya’ni sun’iy hosil qilinadigan suv omborining hajmi Vs.o.=(0,2-0,7)·Vmanba yil. hajmida loyihalanadi.

Agar, Vmanba yil. ( Vtalab ( Vko‘p yillik. bo‘lsa, manbaning suv resurslarini ko‘p yillik boshqarish lozim bo‘ladi. Bunda sun’iy hosil qilinadigan suv omborining hajmi Vs.o. = (1,2-1,5)·Vmanba yil qilib loyihalanadi.

Bu yerda:


Vtalab - sug‘orishga talab qilinadigan suv xajmi;

Vmanba veg. - manbadan vegetatsiya davrida sug‘orishga ajratiladigan suv xajmi;

Vmanba yil. - manbadan yil davomida sug‘orishga ajratiladigan suv xajmi;

Vko‘p yillik - manbadan o‘rtacha ko‘p yillik sug‘orishga ajratiladigan suv xajmi.


**Daryoning oqimini suv omborlari yordamida boshqarish**



# SUV MANBASINING SUG‘ORISHLIK QOBILIYATI

*Suv manbasining sug‘orishlik qobiliyati uning suv rejimini boshqarish orqali, ya’ni suv sarfini va xajmini zarur vaqtda ko‘paytirish orqali amalga oshiriladi. Bu qishloq xo‘jaligi ekinlarining sug‘orish rejimini o‘zgartirish, ya’ni kam suv iste’molli ekinlarni yetishtirishni rejalashtirish, sug‘orish tizimining FIK qiymatini oshirish orqali amalga oshiriladi. Suv manbasining haqiqiy va hisobiy rejimini bilgan holda uni sug‘orish rejimi bilan solishtiriladi. Buning uchun daryoning gidrograf grafigi va ekinlarning suv iste’moli grafiklarini ustma-ust qo‘yish orqali sug‘orish uchun kerak suv miqdorini va suv manbasining sug‘orishlik qobiliyatini aniqlash mumkin.*

*Suv manbasi (daryo) rejimining tahlili grafigi*



# YER USTI SUV MANBALARI. DARYOLAR.

*Yer kurrasida juda ko‘p kattakichik daryolar bo‘lib, ulardan eng yiriklari Amazonka, Yanszi, Kongo, Nil, Yenisey, Misisipi, Lena, Ob, Mekong, Volga, Dunay va boshqalardir.*

*Dunyodagi eng yirik daryo – Amazonka daryosi bo‘lib, uning yillik o‘rtacha suv sarfi 120000 m<sup>3</sup>/s ga teng va uzunligi 5500 km ni tashkil etadi.*

## **Yirik daryolar tavsifi**

| Daryolar | Yillik o‘rt. suv sarfi, ming m <sup>3</sup> /s | Suv yig‘ish maydoni, ming km <sup>2</sup> | Uzunligi, km |
|----------|--|---|--------------|
| Amazonka | 120  | 7000                                      | 5500         |
| Kongo    | 40   | 3690                                      | 4320         |
| Ganga    | 39   | 2000                                      | 2900         |
| Yanszi   | 31   | 1808                                      | 5800         |
| Yenisey  | 19.9   | 2580                                      | 5950         |
| Misisipi | 19   | 3220                                      | 3220         |
| Lena     | 16.8   | 2490                                      | 4270         |
| Ob       | 12.8   | 2990                                      | 5570         |

# YER USTI SUV MANBALARI. DARYOLAR.

*Markaziy Osiyoda uzunligi 10 km dan ortiq bo‘lgan 6000 dan ortiq daryo va soylar mavjud. Ularning 3700 tasi Amudaryo va Sirdaryo xavzalarida joylashgan.*

*Amudaryoning uzunligi 1415 km, suv yig‘ish maydoni 309 ming km<sup>2</sup>, yillik o‘rtacha suv sarfi 2.0 ming m<sup>3</sup>/s*

*Sirdaryoning uzunligi 2212 km, suv yig‘ish maydoni 219 ming km<sup>2</sup>, yillik o‘rtacha suv sarfi 1,2 ming m<sup>3</sup>/s .*

## O‘zbekistondagi daryolar tavsifi

| Daryolar      | Yillik o‘rt.<br>suv sarfi,<br>m <sup>3</sup> /s | Xavza maydoni,<br>ming km <sup>2</sup> | Uzunligi,<br>km |
|---------------|---|--|-----------------|
| Sirdaryo      | 1200.0  | 219.0                                  | 2212            |
| Norin         | 432.0   | 59.9                                   | 578             |
| Qoradaryo     | 121.0   | 30.1                                   | 180             |
| Chirchiq      | 221.0   | 14.9                                   | 161             |
| Oxangaron     | 23.5  | 5.26                                   | 233             |
| Sangzor       | 476.1   | 3.22                                   | 198             |
| Amudaryo      | 2000.0  | 309.0                                  | 1415            |
| Surxandaryo   | 76.1  | 13.5                                   | 175             |
| SHeroboddaryo | 5.4   | 2.95                                   | 177             |
| Qashqadaryo   | 5.3   | 12.0                                   | 378             |
| Zarafshon     | 164.0   | 12.3                                   | 877             |

# YER USTI SUV MANBALARI. KO'LLAR VA SOYLAR.

**Ko'llar.** Amudaryo va Sirdaryo xavzalarida umumiy maydoni  $3705 \text{ km}^2$  bo'lgan, jami 5367 ta ko'l mavjud Issiqko'l, Sudochye, Iskandarko'l, Tuzkon, Dengizko'l, Aydarko'l kabi ko'llar shular jumlasidandir. Ko'llarning ko'pchiligi (5072) ning maydoni  $1 \text{ km}^2$  dan kichik bo'lib, tekislik va tog' mintaqalarida joylashgan. Tekislik mintaqasidagi ko'llar relyefning past joylarida shakllangan bo'lib, daryo suvlari, sug'orish tizimlarining oqovalari, yomg'ir va qor suvlari, yer osti suvlari bilan to'yinadi. Ularda suv oqib chiqib ketmaganligi sababli bu ko'llar turli darajada sho'rlangandir.

**Soylar** tog' va tog' oldi mintaqalarda keng tarqalgan. Farg'ona vodiysida 6500 ga yaqin, Zarafshon daryosining o'rta oqimida 120 dan ortiq yirik va mayda soylar mavjud. Qashqadaryo, Surxandaryo, Chirchiq va b. Daryolar xavzalarida xam ko'plab soylar bor. Soylarning suv yig'ish maydonlari nisbatan kichik –  $100 \text{ km}^2$  gacha, ular yomg'ir, buloq suvlari va qor erishi hisobiga shakllanadi., uzunliklari bir necha o'n km. larga yetadi xamda suv sarflari o'zgaruvchan bo'lib,  $0.02\text{-}2.0 \text{ m}^3/\text{s}$  ni tashkil etadi.

**Soylarning guruxlari:** yirik-uzunligi 60-100 km, suv yig'ish maydoni  $250\text{-}1500 \text{ km}^2$ , suv sarfi  $0.2\text{-}2.0 \text{ m}^3/\text{s}$  tog' soylari (Olmossoy, Zominsoy va b.); o'rta - uzunligi 30-60 km, suv yig'ish maydoni  $30\text{-}250 \text{ km}^2$ , suv sarfi  $0.05\text{-}0.5 \text{ m}^3/\text{s}$  tog' soylari; kichik- uzunligi 30 km gacha, suv yig'ish maydoni  $30 \text{ km}^2$  gacha, suv sarfi  $0.05 \text{ m}^3/\text{s}$  gacha bo'lgan tog' oldi – tekislikda joylashgan soylar. Soy suvlari tog' oldi va lalmikor dexqonchilik rayonlarida bog'-uzumzorlarni, yaylov va pichanzorlarni, tutzor va o'rmonzorlarni sug'orishda ishlatiladi.

Aydarko'l



Qurbanko'l



Kelinchaksoy



# YER USTI SUV MANBALARI. SUV OMBORLARI.

- *Suv omborlari. Daryolarning yillik suv oqimini boshqarish maqsadida sun'iy ko'llar – suv omborlaridan keng foydalaniladi. Suv omborlari daryolarda suv sarfi ko'paygan davrlarda va toshqin suvlarini to'plab, suv sarfi kamaygan davrda bu suvlardan foydalaniladi.*
- *Markaziy Osiyoda Chordara (Qozog'iston, xajmi - 5.2 km<sup>3</sup>), Qayroqum (Tojikiston, xajmi -4.16 km<sup>3</sup>), Nurek (Tojikiston, xajmi -10.5 km<sup>3</sup>), To'xtagul (Qirg'iziston, xajmi -19.5 km<sup>3</sup>) kabi yirik suv omborlari mavjud.*
- *O'zbekistonda umumiyligi hajmi 19,8 mlrd.m<sup>3</sup> bo'lgan 55 ta suv omborlari mavjud. Ular yer usti suvlarining yillik oqimini 25 % gacha boshqarish imkonini bermoqda.*
- *Yirik suv omborlari: Tuyamo'yin (xajmi -7.8 km<sup>3</sup>), Chorvoq (xajmi-2.0 km<sup>3</sup>), Andijon (xajmi -1.9 km<sup>3</sup>), Tallimardon (xajmi -1.5 km<sup>3</sup>), To'dako'l (xajmi -1.2 km<sup>3</sup>), Kattaqo'rg'on (xajmi 0.9 km<sup>3</sup> ) va boshqalar.*

*Chorvoq suv ombori*




*Kattaqo'rg'on suv ombori*




# YER OSTI SUV MANBALARI

- *Yer osti suv manbalari sug‘orish maydoniga yaqin bo‘lganida juda arzon va qulay manbalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham chet davlatlarda bunday manbadan keng foydalanishadi. Jumladan, AQSH da 40% sug‘orish maydoni yer osti suv manbasidan sug‘orilsa, XXR da 33%, Hindistonda 30%, O‘zbekistonda esa rasmiy ma’lumotlar bo‘yicha 5-6% ni tashkil etadi.*
- *Suv manbalarining ko‘rinishiga qarab (buloq, sizot va artezian suv manbalari), suv yer ustiga turli moslamalar yordamida chiqariladi.*


*Yer osti suvlarining hosil bo‘lishi*



## *ARTYEZIAN SUVLARI*




# **YER OSTIDAN SUV OLİSH MOSLAMALARI**



*Shaxta qudug'i sxemasi:*


- 1-ventilyatsion quvur;*
- 2-qopqoq;*
- 3-bosh qism;*
- 4-toshli qoplama;*
- 5-gilli qulfak;*
- 6-quduqning yer ostki qismi;*
- 7-suv qabul qilgich;*
- 8-suvli qatlam;*
- 9-shag'al qatlam;*
- 10-quvur tubi;*
- 11-suv kirish tirqishi;*
- 12-beton halqa*



*Burg'u qudug'i sxemasi:*

- 1-shaxta;*
- 2-kirish qismi;*
- 3-ustki qism;*
- 4-o'rnatilgan quvur;*
- 5-foydalanish kalonkasi;*
- 6-frezer;*
- 7-suvli qatlam;*
- 8-filtr;*
- 9-tindirgich*

# KORIZLAR



# **YER OSTI SUVIDA SUG‘ORISH TIZIMINING XUSUSIYATLARI**

*YER OSTI SUVLARI BILAN SUG‘ORISH QUYIDAGI XUSUSIYATLARGA EGA: MANBA DEBITINING KICHIKLIGI; SUVDA LOYQA MIQDORINING YO‘QLIGI; SUV HARORATINING 12 0S DAN PAST BO‘LISHI; SUV MANBASINING SUG‘ORISH DALASIGA JUDA YAQIN BO‘LISHLIGI; SUG‘ORISH MAYDONINING KICHIKLIGI (ODATDA 15-100 GA).*

*TAJRIBALARING KO‘RSATISHICHA YER OSTI SUVLARI BILAN 100-600 GA DAN KAM BO‘LMAGAN MAYDONLARNING SUG‘ORILISHI MAQSADGA MUVOFIQ HISOBLANADI. BUNING UCHUN ESA BIR GURUH SUV OLİSH INSHOOTLARINING SONINI, JOYLASHUV O‘RNINI MUJASSAMLASH KERAK BO‘LADI.*

*BU MANBANING XUSUSIYATLARIDAN BIRI SUVNING TOZA EKANLIGIDADIR. BU SUG‘ORISH TEKNIKASI SIFATIDA YOMG‘IRLATIB SUG‘ORISH (YOMG‘IRLATISH MASHINA YOKI QURILMALARI) YOKI TOMCHILATIB SUG‘ORISH USULLARINI QO‘LLASH ORQALI SUG‘ORISH SUVINING SAMARADORLIGINI OSHIRADI. YOPIQ SUG‘ORISH TIZIMIDAN FOYDALANISHESA, XARAJATLARNI KESKIN KAMAYTIRADI, CHUNKI ULARDA LOYQA CHO‘KMAYDI.*

# MAXALLIY OQIM


**Mahalliy oqim suv manbalari** – yer yuzasiga atmosferadan tushgan yomg‘ir, qor suvlaridan hosil bo‘lgan oqovadir.

**Maxalliy oqim** – baxorgi qorlarni erishi, yomg‘ir suvlari xamda vaqtinchalik suv oqadigan kichik ariq, soy va b., va doimiy suv yig‘ish maydoni kichik bo‘lgan mayda daryolar larning suvoqimi maxalliy oqim deyiladi. Ularning xususiyati – katta suv sarflarining qisqa muddatli va oqim xajmini yillar bo‘yicha o‘zgaruvchanligidir.

Maxalliy oqimda doimiy sug‘orish uchun uni mavsumiy yoki ko‘p yillik boshqarish lozim. Bu – maxalliy oqimni xovuzlarda va suv omborlarida yig‘ish orqali amalgalashadi.

Ularni joyini tanlashda tabiiy pastliklar, jarliklar, qayirlar va kichik daryolardan foydalaniladi. Tabiiy joylar bo‘lmasa, sun’iy xovuzlar quriladi. Joy tanlashda: xajmi maksimal oqimni ushlab qolishi, suv yuzasining maydoninin minimal bo‘lishi, hosildor yerlarni suv bosmasligi, to‘g‘on xajmining kichikligi, o‘zanning suv o‘tkazuvchanligining past bo‘lishiga axamiyat beriladi.

**Mahalliy oqova suvlarning hosil bo‘lishi**



$\mu P$  - Tuproqqa shimalgan,

$(1 - \mu)P = SP$  -oqova

$S = 1 - \mu$  - Oqova moduli.

# MAXALLIY OQIM

*10-60 mm qalinlikda yoqqan yomg‘ir ba’zida 500-600 ming m<sup>3</sup> suv hajmlarini (katta maydonlarda) tashkil etishi mumkin. Bu suvlarning oqimini to‘xtatmaslik tuproq eroziyasiga, suv toshqinlariga sabab bo‘lib, katta zararli oqibatlarga olib keladi (qishloq xo‘jalik ekinzorlarini suv bosishi, sug‘orish tarmoqlariga loyqa cho‘kishi, tuproq eroziyasidan hosildor qatlamning yuvilishi va h.k.).*

*Bu suvlar sel omborlarida (O‘zbekiston hududida bunday suv omborlar soni 25 ta) va limanlarda ushlab qolinishi ham ularning zararini bartaraf etadi hamda limanlarda tuproqning bir marotaba namlanishini ta’minlaydi.*

*Mahalliy oqova suvlarni to‘plash uslublari*

*Kichik suv to‘plagichlar:*

- 1. Konturli tuproq uyumi (yaylov, daraxt, poliz).*
- 2. Kichik chuqurchalar (yaylov).*
- 3. Kichik suv to‘plash maydonchalari (yaylov, daraxt).*
- 4. Oqim yo‘laklari (yaylov, daraxt).*
- 5. Suv to‘plash havzasasi (Maskat)(daraxt).*
- 6. Yarim aylana yoki trapetsiya ko‘rinishdagi sayoz limanlar (daraxt, yaylov).*

# MAXALLIY OQIM TURLARI


**KONTURLI TUPROQ  
UYUMI**



**KICHIK SUV TO'PLASH  
MAYDONCHALARI**



**SUV TO'PLASH HAVZASI (MASKAT)**



**KICHIK CHUQURCHALAR**



**KICHIK CHUQURCHALAR**



**YARIM AYLANA YOKI TRAPETSİYA  
KO'RİNİŞDAGI SAYOZ LIMANLAR**




# LIMANLAR

*Liman – uch tomoni uvatlar bilan o‘ralgan maydondir.*



*Bir marotaba sug‘orishda suv:*

*dasht o‘simliklari uchun 15-25 kun, ekilgan o‘tlar uchun 5-10 kun, don ekinlari, himoya daraxtlari uchun 2-5 kun limanda saqlanishi mumkin.*

*1 ga limanli sug‘orish maydoniga 6-20 ga suv to‘plash maydoni kerak. Shu hisoblardan limanlarning soni, ulardagи suv qatlами qiymatidan suv to‘sqichlarining balandligi qiymati aniqlanadi.*




*Limanning hisob sxemasi*



*Limanning qirqimdagи ko‘rinishи*  
*A-tuproqli to‘sqich;*  
*B-yumshоq matoli to‘sqich*

# LIMANLI SUG'ORISH SXEMALARI



## Limanlar sxemasi:

a - yarusli, daryordan to'shqin suvlaridan to'ldiriladi; b - yarusli, daryo poymasida; v - oqib o'tuvchi; g - oddiy liman; d - o'ra (kotlovan) dagi yarusli; ye - yarusli, suv omboridan to'ldiriladi; j - yarusli, kanaldan to'ldiriladi; z - liman-chekli sug'orish tizimi; i - sayoz yarusli liman.

1, 2 - suv boshqaruvchi, taqsimlovchi va oqimni yo'naltiruvchi chel (devor) lar;

3 - to'g'onlar;





4 - nasos stansiyasi;

5 - tabiiy suv aylanib o'tguvchilar;

6, 7 - suv chiqargichlar;

# LIMAN TURLAR

*Daryo limanları*



# Limanlarning hisobi

Лимандаги сув чуқурлиги:

$$h_m = \frac{V}{10000 \cdot \omega_m}, \text{ м,}$$

бу ерда  $V$ -лимандардаги сувнинг ҳажми, м<sup>3</sup>;  $\omega_m$ -сувнинг қоплаш юзаси, га.

Лиманли сугориш меъёри:

$$M_{bas nt} = h_w \cdot A \cdot (\beta_{tot} - \beta_{max}), \text{ м}^3/\text{га,}$$

бу ерда  $h_w$ -намлантирилайдиган қатлам қалинлиги, ( $h_w = 1,5 - 2,0 \text{ м}$ );

$A$ -ўртача ғоваклик, ҳажмга нисбатан % ҳисобида;

$\beta_{tot}, \beta_{max}$ -тупроқнинг ТНС ва ММНС, ғовакликка нисбатан %.

Лиманли сугоришда лиман майдони қўйидагича аниқланади:

$$\varrho_{bas} = \frac{V_0}{M_{br}}, \text{ га,}$$

бу ерда  $V_0$ -сув оқиб келиш майдонидан тўпландиган сув ҳажми, м<sup>3</sup>;  $M_{br}$ -лиманли сугоришнинг брутто меъёри, м<sup>3</sup>/га;

$$V_0 = 1000 \cdot h_l \cdot k_{ml} \cdot \varrho, \text{ м}^3,$$

бу ерда  $h_l$ -баҳорги маҳаллий оқова сувларининг ўртача қалинлиги, мм;  $k_{ml}$ -модуль коэффициенти;  $\varrho$ -сув тўпланиш майдони, га.

# CHIQINDI SUVLAR


*Chiqindi suvlari bu tozalangan, qayta ishlangan sanoatdan, kommunal-xo'jalikdan, chorvachilikdan, yog'indan chiqqan va aralash suvlardir. Sug'orishda chiqindi suvlardan foydalanish ma'lum masalalarini xal qiladi: toza daryo va yer osti suvlarini iqtisod qiladi; suv manbalarini ular bilan ifloslanishi oldi olinadi; tarkibidagi mineral va organik moddalardan foydalaniadi. Unumdoorligi eng yuqorilari: oziq-ovqat sanoatiniki, tekstil, qog'oz, charm sanoatinikidir. Kommunal-xo'jaliknikida katta o'g'itlik xususiyatiga ega bo'lgan azot, fosfor, kaliy va organik moddalar mavjud. Chorvachilik chiqindi suvlarida ko'p organik moddalar bo'lib, tuproq unumdoorligini oshiradi. Lekin ularning tarkibidagi ishqorlar, kasallik bakteriyalari, gelmintlarning tuxumlari borligi ularni zararsizlantirishni talab etadi. Yog'in suvlari asosan shaxardan chiqadigan yog'ingarchilik va tashlama sug'orish suvlari bo'lib, tarkibida asosan mexanik oqiziqlar bo'ladi.*

*Chiqindi suvlari foydalanishdan oldin mexanik, kimyoviy va biologik qayta ishlovdan o'tkaziladi. Ularni ishlatishda doimiy extiyot choralar ko'riliши, tuproq, yer usti va yer osti suvlarini sifatini doim nazorat qilib turish kerak bo'ladi. Chiqindi suvlari foydalanishda sug'oriladigan maydonlar oldida xovuzlar yoki filtratsiya dalalari tashkil etiladi. Xovuzlardan suv sug'orishga, cho'kindilari esa, o'g'itga ishlatiladi. Filtratsiya dalalarida ekin ekilmaydi va suv gruntlarga shimalishi orqali tozalanadi.*

*O'zbekistonda xar yili 1.5 km<sup>3</sup> chiqindi suvlari shakllanmoqda. Ularning 50% kommunal-xo'jalik, 14% sanoatga to'g'ri keladi. Bu suvlari bilan 200 ming hektar yer sug'orilishi mumkin. Hozirgi kunda bu suvlaring 50% i suv xo'jalik balansida ishtirok etmoqda.*

*Yaqin kelajakda O'zbekistonda chiqindi suvlari xajmi – 5 km<sup>3</sup>/yil (Sirdaryo xavzasida -3 km<sup>3</sup> va Amudaryo xavzasida – 2 km<sup>3</sup> ) ga yetishi kutilmoqda. Bu suvlari bilan 600 ming hektar yer sug'orilishi mumkin.*

*Chiqindi suvlarning shakllanishi*



- коммунал-хўжалик
- ер усти оқава сувлари
- саноат
- қишлоқ хўжалиги

# MAVZU BO‘YICHA SAVOLLAR

- *Suv resurslari nima va uning turlari?*
- *Doimiy (statistik) va qaytadan tiklanib turuvchi suv resurslarining farqi nimada?*
- *Yer sharida suvning aylanishini tushuntiring.*
- *Sug‘orma dexqonchilikdagi suv manbalari.*
- *Suv manbalaridan kompleks foydalanish nima degani?*
- *Suv manbalarining ko‘rsatgichlari nima bilan baxolanadi?*
- *Manbaning sug‘orish qobiliyati nima va qanday aniqlanadi?*
- *Markaziy Osiyodagi daryolar va ularning xarakteristikalari.*
- *Ko‘llar va soylar. Ularning turlari.*
- *Suv omborlari va ularning ko‘rsatgichlari.*
- *Yer osti suv manbalari va ulardan suv olish moslamalari.*
- *Yer osti suvida sug‘orish tizimining xususiyatlari.*
- *Mahalliy oqim suv manbalari va ularni boshqarish.*
- *Maxalliy oqim turlari*
- *Limanlar, turlari va limanli sug‘orish sxemalari.*
- *Limanlarning hisobi.*
- *Chiqindi suvlar bilan sug‘orish.*
- *Chiqindi suvlarning turlari.*



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ  
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH  
MUHANDISLARI INSTITUTI



## E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!



Isayev  
Sabirjan  
Xusanbayevic  
Irrigatsiya va melioratsiya  
kafedrasi professori



+ 998 71 237 19 56



[s.isaev@tiiame.uz](mailto:s.isaev@tiiame.uz)



@sabirjanisaev